

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING AHAMIYATI

Sulaymonova Sevinch Sanjar qizi

Osiyo Xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash jarayonida estetik tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Estetik tarbiya vositasida bolalarda go‘zallikni anglash, badiiy did, ijodiy fikrlash, madaniy-estetik munosabatlar shakllanishi yoritib berilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada estetik tarbiyani samarali amalga oshirish usullari, yo‘nalishlari va natijalari misollar orqali ochib berilgan. Muallif estetik tarbiyaning bola shaxsiyatini shakllantirishdagi rolga alohida e’tibor qaratgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, estetik tarbiya, bolalar rivoji, badiiy did, ijodiy fikrlash, tasviriy san’at, musiqa, oila va MTT hamkorligi, estetik his-tuyg‘u, go‘zallikni anglash*

KIRISH

Maktabgacha yosh — bu bolaning shaxsiyati shakllanishidagi eng muhim, poydevor bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol ravishda kuzatadi, his etadi, o‘rganadi va unga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi. Shu bois, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni tarbiyalashda faqatgina aqliy va jismoniy rivoj emas, balki estetik tarbiya ham alohida ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya orqali bolalarda go‘zallikni anglash, uni qadrlash, his etish va ijodiy yondashuv kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday tarbiya bolaning nafaqat badiiy didini, balki ruhiy-axloqiy olamini ham boyitadi, uning ichki dunyosini noziklashtiradi va go‘zallikka intilish hissini uyg‘otadi.

Har bir ota-ona o‘z farzandini tarbiyali, nafosatli, aqlli, baquvvat va mard bo‘lishini istaydi. Estetik ruhda tarbiyalash, uning qiyofasiga - his-tuyg‘ulariga, irodasiga samarali ta’sir qiladi. Ilmiy dunyoqarashni ma’naviy qiyofasini shakllantiradi, hayotni bilib borish imkoniyatini tug‘diradi. Estetik ruhda tarbiyalash g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, nafosatni tushinibgina qolmay, balki uni yaratishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni kamolga yetkazish maqsadini ham ko‘zda tutadi. Bizning mamlakatimizda bolalarni estetik ruhda tarbiyalashga kerakli hamma shart-sharoitlar mavjuddir. Muzey va teatrlar, kutubxona va klublar, kinoteatr va rasmlar galereyalari, takrorlanmas o‘tmish obidalari, qolaversa butun hayot tarzimiz, urf-odatlarimiz ham - barkamol avlodni estetik ruhda tarbiyalash va kamol toptirishga yordam beradigan asosiy vositalardir. O‘zbekistonda demokratik qoidalar asosida rivojlanayotgan maktabgacha ta’lim, bolalarga badiiy ta’lim va estetik tarbiya berishni, go‘zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik did, san’at asarlari, tarix, me’morchilik yodgorliklarni qadrlash, tabiat boyliklarini e’zozlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda yosh avlodni vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavq olib, estetik tarbiyalashni amalga oshirishi zarur.

Estetik zavqlanish kishida mehnat ilhomini yanada jo‘sh urdiradi, insonni ulug‘laydi va uning turmush sharoitini bezaydi. Umuman estetik tarbiya yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Estetik tarbiya - bolalarni voqelikdagi, san‘atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish hamda hayotiga go‘zallik baxsh etuvchi qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari.

Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga, shuningdek estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Estetik tarbiya — bu bolaga go‘zallikni ko‘rish, sezish, tushunish, baholash va ijodiy tarzda ifoda etishni o‘rgatish jarayonidir. Bunday tarbiya orqali bolalar nafaqat san‘at asarlarini anglaydi, balki o‘z hayotida ham go‘zallikka intilish hissini uyg‘otadi. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi:

- go‘zallikni anglaydigan, qadrlaydigan didli shaxsni tarbiyalash;
- bolada ijodiy his-tuyg‘ularni rivojlantirish;
- ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish;
- badiiy va madaniy merosga mehr uyg‘otishdir.

Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalariga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli yo‘llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi. U jamiyat estetik madaniyatini turli ma’naviy va moddiy ko‘rinishlarda tushunib olishni ta’minlaydi.

Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati - insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to‘plangan moddiy va ma’naviy qadriyatlari majmui demakdir. Bola shaxsining estetik madaniyati uning madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik ong, estetik idrok, bilim, mulohaza, bahs, estetik idealni qamrab oladi.

Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, didi, estetik hissiyotlarida ifodalanadi. Estetik faoliyat ko‘nikma, malaka, ijodiy qobiliyatlar mavjudligi bilan tasvirlanadi.

Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san‘at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadi, estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi.

Estetik idrok bu atrof voqelikdagi buyumlar, hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish, idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo‘lgan hissiy va aqliy narsalarning o‘zaro aloqasi bilan ifodalanadigan estetik mezonlar bilan qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go‘zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq

maqsadga qaratilganligi bilan izohlanadi. To‘laonli estetik idrok estetik tushunchalar va estetik mulohazalarni shakllantirish bilan birgalikda sodir bo‘ladi.

Estetik ehtiyoj deb, shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga badiiy faoliyatning aniq bir turiga yoki uning xilma-xil turlariga undovchi subyektiv omillariga aytiladi. Estetik ehtiyojlar estetik axborotga ehtiyojni, go‘zallik haqidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilishga, estetik zavq bergan narsani

ko‘proq idrok etishga intilishda murosasiz bo‘lish va uni butkul yo‘qotishga harakat qilishda, aniq bir san‘at asari, uning muallifi haqidagi yangiliklarni bilishga intilishda ifodalanadi.

Estetik qiziqish-shaxsning estetik faoliyatida, voqelik va san‘at asarlarini estetik jihatdan ifodalashda ko‘rinadi. Estetik qiziqishning asosiy belgilari bolalarda estetik faoliyatga intilishi, o‘zi yoqtirgan san‘at asarlarini yig‘ib, to‘plab borishi, ularni takror-takror o‘qib, idrok etishi, ular haqida fikr bildirishga intilishi, boshqalarning shu masalaga doir fikrini bilishga qiziqish, muayyan san‘atkor, janr,

yo‘nalish kabilarni afzal ko‘rishda namoyon bo‘luvchi, tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Masalan, bolalar o‘zlarini qiziqtirgan san‘at ustasining rasmlarini, asarlarini to‘playdilar, qayta-qayta ko‘rib chiqadilar. Bolalar estetik qiziqishlarining kengligi, chuqurligi, barqaror yoki beqarorligi bilan ajralib turadilar. Bu ularning faolligi darajalarini va atrof hayotga estetik hamda amaliy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Boladagi estetik qiziqish darajasi pedagogik ta‘sir natijasida yuqoriga ko‘tarilishi yoki susayishi ham mumkin. Estetik qiziqishlar bolada estetik ehtiyojni tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Estetik tarbiyaning yo‘nalishlari:

1.Tasviriy san‘at

2.Musiqqa

3.Adabiyot

4.Tabiat

5.Milliy san‘at va urf-odatlar

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida estetik tarbiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. **Tasviriy san‘at** – rasm chizish, bo‘yash, shakllar yasash orqali bolaning tasavvuri, badiiy qarashi rivojlanadi.

2. **Musiq** – qo‘shiq aytish, musiqani tinglash va raqsga tushish orqali bola ritmni his qilishni, go‘zallikni tovush orqali anglashni o‘rganadi.

3. **Adabiyot** – ertak, she‘r va hikoyalar orqali bola obrazli tafakkur va estetik hislarni rivojlantiradi.

4. **Tabiat** – bolaga tabiat go‘zalligini ko‘rsatish orqali ekologik madaniyat va estetik sezuvchanlik tarbiyalanadi.

5. **Milliy san‘at va urf-odatlar** – milliy liboslar, naqshlar, xalq og‘zaki ijodi orqali estetik dunyoqarash boyitiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar bilan maxsus mashg‘ulotlar, bayramlar, teatr sahnalashtirishlar orqali estetik tarbiya tizimli amalga oshiriladi. Bunda pedagogning didi, uslubiy tayyorgarligi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila esa bolalarning birinchi estetik maktabidir. Uyda rasm chizish, birgalikda musiqa tinglash, badiiy kitoblar o‘qish, madaniy tadbirlarga tashrif buyurish kabi ishlar bolaning estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Shu sababli MTT va oilaning estetik tarbiyadagi hamkorligi muhimdir.

Estetik tarbiya bolaning quyidagi jihatlarini rivojlantiradi:

- ✚ badiiy did va go‘zallikni anglash qobiliyati;
- ✚ ijodiy fikrlash va tasavvur;
- ✚ o‘zini erkin ifoda etish;
- ✚ nozik his-tuyg‘ular, estetik zavq;
- ✚ madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabat.

Yuqorida qayd etilgan omillar estetik tarbiyaning maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiyati shakllanishida nechog‘li muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Estetik tarbiya bola tasavvurining kengayishiga, ichki dunyosining boyishiga, nozik his-tuyg‘ularining rivojlanishiga va ijodkorlik salohiyatining yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Shu orqali bola dunyoni badiiy-estetik ko‘z bilan ko‘rishga, uni anglash va go‘zallashtirishga intilish hissiga ega bo‘ladi.

Shu jihatdan olib qaraganda, estetik tarbiyaning bolalik davridanoq izchil va maqsadli tashkil etilishi nihoyatda muhimdir. Bu tarbiya turi bola shaxsining har tomonlama kamol topishida tabiiy va samarali yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Undan oqilona foydalanish esa maktabgacha ta‘lim muassasasi va oilaning hamkorlikdagi faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa: Maktabgacha yoshda berilgan estetik tarbiya bola shaxsiyatining muhim asoslaridan birini tashkil qiladi. Estetik tarbiya orqali bola dunyoni go‘zal ko‘rishni, go‘zallikka intilishni va uni yaratishni o‘rganadi. Bu esa uning ruhiy olami va ijtimoiy munosabatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta‘limda estetik tarbiyaga alohida e‘tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Sharipova M.M. Maktabgacha ta’limda estetik tarbiya. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2022.
2. Karimova R. Bolalar ijodiy rivojlanishida estetik tarbiyaning roli. // Pedagogik izlanishlar, 2021, №3.
3. Usmonova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiya va uning yo‘nalishlari. – Nukus: “Qaraqalpaq”, 2020.
4. Numondjonovna, D. G. (2022). The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(2), 54-57.
5. Numondjonovna, D. G. (2021). The importance of using multimedia to expand children’s worldwide during the activities. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(7), 28-31.
6. Davranova Gulbahor, N. (2022). Advantages of using modern information technologies in teaching russian language for primary school students. American journal of social and humanitarian research, 3(1), 333-338.
7. Davranova, G. N. (2022). Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons. European journal of innovation in nonformal education, 2(6), 73-78.
8. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang ‘ich ta’lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 144-146.
9. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 363-367.